

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova</b> Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati.....	8
<b>T.A.Egamberdiyeva</b> Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari .....	13
<b>N.T.To‘xtaboyev</b> Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasi tahlili .....	18
<b>I.B.Siddiqov</b> Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida.....	25
<b>N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva</b> Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi .....	28
<b>Sh.A.Mamajonov</b> Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish.....	32
<b>M.M.Kuzibayeva</b> Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar.....	37
<b>K.R.Abdullayev</b> Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	39
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	43
<b>U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev</b> Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari .....	48
<b>R.Z.Xayrov</b> Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari.....	54
<b>G.U.Radjabova</b> Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi.....	61
<b>Г.К.Якубова</b> Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" .....	67
<b>M.M.Xamroliev</b> Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	73
<b>U.V.Mamadjanov</b> Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari .....	76
<b>S.X.Kaxxarov</b> Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari .....	80
<b>X.X.Tojiyev</b> Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash .....	85
<b>D.S.Sobirov</b> Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari .....	92
<b>D.Z.Isaboyeva</b> Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) .....	96
<b>F.Q.Yusupjanova</b> O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari .....	99
<b>X.A.Ustadjalilova</b> Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari.....	102

**KITOBXONLIK – BUYUK KELAJAK KAFOLATI****ЧТЕНИЕ - ГАРАНТИЯ ВЕЛИКОГО БУДУЩЕГО****READING IS A GUARANTEE OF A GREAT FUTURE****Shermuhammadov Bahodir Shermuhammadovich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor**Qosimova Xolida Nabiyevna<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi**Аннотация**

*Kitob – umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilm-u- odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Bugungi kunda ko'pincha bolalar kitob o'qimayotganlikda ayblanadilar. Lekin ularga rang-barang adabiyotlar tavsiya qilish zarurligi ota-onalar, o'qituvchilar, kutubxonachilarning ham ba'zi vaqtda e'tiboridan chetda qolmoqda.*

**Аннотация**

*Книга – это неугасимый свет, освещающий жизненные пути, источник счастья, придающий смысл жизни человека, верный друг, сопровождающий его в любой ситуации. Нет более мощного инструмента, чем книга, для обеспечения духовной зрелости человека. Вот почему с незапамятных времен деятели просвещения и мудрые люди предлагали всему человечеству читать книги и узнавать из них тайны науки и нравов. Сегодня детей часто обвиняют в том, что они не читают. Но родители, учителя и библиотекари иногда игнорируют необходимость рекомендовать им красочную литературу.*

**Abstract**

*A book is an unquenchable light that illuminates the paths of life, a source of happiness that gives meaning to a person's life, a loyal friend that accompanies him in any situation. There is no tool as powerful as a book to ensure the spiritual maturity of a person. That is why, from time immemorial, leaders of enlightenment and wise people have invited all mankind to read books and learn the secrets of science and manners from them. Today, children are often accused of not reading. But parents, teachers, and librarians sometimes ignore the need to recommend colorful literature to them.*

**Kalit so'zlar:** kitob, madaniyat, kitobxonlik madaniyati, kitobxonlik ko'nikmasi, intellektual salohiyat, ma'naviyat**Ключевые слова:** книга, культура, культура чтения, навыки чтения, интеллектуальный потенциал, духовность.**Key words:** book, culture, reading culture, reading skills, intellectual potential, spirituality**KIRISH**

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti barcha davlatlarda rivojlanishning mohiyati uning sur'ati, insonlarning odobi, tarbiyasi, xulqi va ma'naviy kamolot darajasiga bog'liq deb hisoblaydilar. Qayerda ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy fazilat yuksak bo'lib, ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlar oqilona yo'lga qo'yilgan bo'lsa, u yerda jamiyatning ijtimoiy adolat mezonlari tez rivojlanganligi tarixdan ma'lum.

Tarbiyaviy ishlar, yuksak odob-axloq me'yorlari kecha va bugun o'ylab topilgan narsa emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi, ota-bobolarimizning necha-necha yillar davomida, ajdodlar tajribasiga suyangan holda kelajagimiz bo'lgan yoshlarga ma'naviy-axloqiy meros sifatida o'rgatilib kelinadi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va u uzluksiz uzoq jarayon davom etish orqali shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, tarbiya barcha jamiyat uchun, kelajak avlodning shakllanishi uchun, har kuni, har vaqt tarbiya zaruriy ehtiyoj hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Har bir inson dastlabki tarbiyani, ya'ni ma'naviy ozuqani oilada ota-onadan oladi. Keyin esa maktabga boradi. Jamoada o'zini qanday tutishni o'rganadi. Ma'naviy ozuqa olishning, chin inson bo'lib yetishishning birdan bir yo'li bu kitob mutolaasi hisoblanadi. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog'liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Darhaqiqat, bu ma'naviy sarchashma farzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o'stirib, xotirasini mustahkamlaydi.

Bugun mamlakatimizdagi barcha islohotlarning negizida jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirish, xususan, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, Vatan va xalqqa muhabbat hamda sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun islohotlarni markazida kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu esa huquqiy-me'yoriy bazani mustahkamlash, tashkiliy-amaliy ishlarni zamon talablari asosida olib borish, bu masalaga keng jamoatchilikni jalb etish bo'yicha keyingi paytda birmuncha ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash lozim.

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi. Bola tarbiyasida uning o'rni muhim. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Shu bois yurtimizda aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, o'quvchilar qalbida yuksak ma'naviyatni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyosdir. Kitob asrlarni-asrlarga, zamonlarni-zamonlarga, rishtalarni-rishtalarga ulovchi vosita. Shuning uchun har bir inson, har bir kitobxonda kitob o'qish, axborot olish madaniyatini yanada rivojlantirishimiz kerak. Kitob o'qish madaniyati juda keng tushuncha va murakkab muammo bo'lib, taxminan quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi:

- kitob tanlab olish;
- kitobni qanday o'qishni bilish;
- kitob o'qiganda nimalarga e'tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish;
- qayta o'qish-kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish.

Kitobga bo'lgan qiziqish o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Chunki kitob – ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do'stlashish nafaqat bizni ma'nan yuksaltiradi, balki jahonga tanitadi, hamda yaxshilikka etaklaydi. Darhaqiqat, kitob o'qigan inson, jamiyatda qaysi sohada faoliyat olib bormasin, to'g'ri fikrlash, innovatsion g'oyalarni shakllantirish, oqu qorani ajratish, ayniqsa, qiyin vaziyatlarda oqilona va tez qaror qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Kitob paydo bo'lgan paytdan boshlab hayot darsligi va bilim beruvchi vosita sifatida kishilarning iymonli bo'lishi uchun xizmat qilib, yashash tarzining hayot kechirish qoidalarning qomusiga aylangan. Kitob har bir insonning, ayniqsa, yoshlarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Zero, qadriyatlar orasida o'qish, mutolaa va bilim olish alohida o'rin tutadi.

Kitob o'qishning shaxsni intellektual, psixologik va fiziologik jihatdan rivojlanishiga yordam beruvchi ta'sirlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, kitob o'qish orqali o'quvchilarning: nutq rivojlanadi; nutqi boyiydi; tasavvuri o'sadi; tafakkuri rivojlanadi; xotirasi mustahkamlanadi; hissiyoti (hissiy sifatlar, xususan, hamdardlik hissi) tarbiyalanadi; "ijtimoiy idroki" shakllanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerak, shaxsda "ijtimoiy idrok"ning shakllanishi unda yashovchanlik qobiliyatining rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa kitob o'qishga ijobiy yondashishlariga erishish dolzarb pedagogik vazifalardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu vazifani hal qilish orqali esa shaxs (o'quvchilar)ni ijtimoiy munosabatlarga izchil, to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi.

Zamonaviy jamiyatda qaror topgan ayrim holatlar ta'lim sohasining jadal rivojlantirish yo'lida to'siq bo'lmoqda. Xususan, jamiyat a'zosi bo'lgan alohida aholi qatlamining real daromadlari o'sganligiga qaramay, kitoblar hamda bosma OAVga bo'lgan talab pastligicha qolmoqda; kitob o'qish uchun talab qilinadigan bo'sh vaqt tarkibiy tuzilmasining o'zgarishi uning nufuzi pasayishiga olib kelmoqda; ta'lim sohasida savodxonlik va o'qish madaniyatini rivojlantirishga nisbatan e'tibor pasaymoqda: a) umumiy o'rta ta'limda – bitta til (masalan, rus tili va adabiyoti, yozma matnlarni bilan ishlash)ni o'quv predmeti sifatida o'qitish uchun ajratilgan soatlarning qisqarganligi; b) o'rta maxsus ta'limda – kasbiy tayyorgarlik (OTM, qo'shimcha ta'lim, malaka oshirish) darajasida kitobxonlik kompetensiyasi, yozma matnlar bilan ishlash mahoratini rivojlantirishga oid tizimli dasturlarning mavjud emasligi; axborot texnologiyalarining intensiv rivojlanishi kitob o'qishni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy muhit doirasining torayishiga olib kelmoqda; nazariy jihatdan taklif etilayotgan kitob va kitob mahsulotlari (badiiy, ma'lumotli, ilmiy-ommabop, maxsus adabiyotlardan iborat mahalliy va tarjima asarlari) sifatining talab darajasi emasligi ko'plab hududlarda kitob o'qishning zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda; ta'lim

muassasalari, kutubxonalar, nashriyotlar, kitob savdosida kitob o'qishning nufuzini ko'taradigan, bu boradagi harakatni qo'llab-quvvatlaydigan hamda rivojlantiradigan malakali kadrlarning yetishmasligi kitobxonlar doirasini kengaytirish yo'lidagi to'siq bo'lmoqda [1, 298].

Eng achinarli jihati, yuqorida qayd etilgan muammoning yoshlar orasida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi, ularning kitobxonlik madaniyatiga ega emasligidir. Har qanday taraqqiyot ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan mavjud sharoitda shaxs ehtiyojlarini qondiruvchi ma'lumotlarni tarqatuvchi OAV soni, turining ko'payib, ular qamrab olgan ko'lamning tobora kengayib borayotganligi kitob va kitobxon mavzusining yanada dolzarblashayotganligida ikki jihatni ko'rish mumkinligini tasdiqlaydi. Ta'kidlash lozimki, "yaxshi tomoni, mutolaa ehtiyoji yuksalib, shaffoflashib borayotganligi; xavotir tarafi ommaviy kitobxonlik susayib, talabga javob bermaydigan kitoblarning rastalarda ko'payayotganligi"[2].

Darhaqiqat, "ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi"[3, 4].

Global axborotlashuv sharoitida ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy qiymatga ega bo'lmagan kitob mahsulotlarining yaratilayotganligi, badiiy, hatto ilmiy adabiyotlarning yuqori saviya, amaliy qiymatga ega emasligi o'z navbatida shaxsning fikrlash qobiliyati, tafakkur salohiyatiga ega bo'lishiga erishishni ijtimoiy ehtiyojga aylanishini ta'minladi. Jamiyat a'zolarining ong, tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo'lishlariga erishishning muhim omili sifatida kitob o'qishni, kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalasini tobora dolzarblashishiga olib kelmoqda.

Kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish muammosining umumiy mohiyatini yoritishda dastlab tayanch tushunchalarni ajratish hamda ularning mazmunidan xabardor bo'lish tadqiqiy xarakterga ega pedagogik faoliyat yo'nalishini to'g'ri belgilash, sinovdan o'tkaziladigan nazariy g'oya va farazlarni aniq ifodalash, kutiladigan natijani oldindan to'la tasavvur etish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu sababli ilmiy tadqiqotni olib borishda muammo asosini tashkil etuvchi, uning mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib olish va ularni pedagogik nuqtai nazardan yoritishga e'tibor qaratildi.

Pedagogika sohasida shaxs va kitobxonlik o'rtasidagi o'zaro munosabatni yoritishda "kitob", "o'qish", "kitob o'qish" (yoki "mutolaa"), "kitobxonlik savodxonligi", "kitobxonlik", "kitobxonlik faoliyati", "kitobxonlik ko'nikmasi", "kitobxonlik malakasi", "kitobxonlik kompetentligi" hamda "kitobxonlik madaniyati" tushunchalari tayanch tushunchalar – asosiy kategoriyalar sifatida qabul qilingan.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fikrimizcha, "ish joylarida, shaxsiy munosabatlarda yoki kundalik hayotda duch keladigan son-sanoqsiz boshqa muammolar qancha ko'p bo'lishidan qat'i nazar, kitoblardagi hikoyalarni o'qib, ularda inson o'zini yo'qotib qo'yadi, barchasi shunchaki sirg'alib ketadi. Yaxshi yozilgan romanlar o'quvchini boshqa sohalarga olib borishi mumkin, qiziqarli maqolalar kundalik muammolardan chalg'itadi va hozirgi paytdagi holatni ushlab turadi, zo'riqishlarning ketishiga va dam olishga imkon beradi. Kitobxonlikning eng muhim xususiyatlaridan yana biri – bilimga ega bo'lish. Biz o'qigan har bir narsamiz bizning ongimizni yangi ma'lumotlar bilan to'ldiradi va bu bizga qachondir foydali bo'ladi. Odamlar qanchalik ko'p bilimga ega bo'lsalar, ular kelajakda duch keladigan har qanday muammoni yengish uchun eng yaxshi qurollangan bo'ladilar"[4].

Demak, "ko'p asrlardan buyon insonning yo'ldoshi bo'lib kelayotgan qadimgi madaniy atribut" bo'lgan "kitobdan dastlab voqeliklar, ilmiy bilimlarni yozib borish uchun foydalanishgan, so'ngra kitob chop etishning va badiiy adabiyotning yaratilishi bilan bog'liq holda bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishning elementiga aylandi".

Kitoblar orasida bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar o'ziga xos o'rin tutadi. Bu turdagi adabiyotlar ham boshqa turdagi kitoblar kabi borliq to'g'risidagi axborotlarni jamlovchi, kishilik taraqqiyoti tajribasini o'zida hal etuvchi manbadir. Shu sababli ham kitobga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishlariga erishishda bolalar adabiyotlarini shunchaki ermak, o'yinchoq deb emas, balki ularni intellektual, hissiy, axloqiy madaniyatini shakllantirishning eng samarali vositasi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, kitob va kitob o'qish "yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy

qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash” da o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayni o‘rinda shuni ham qayd etib o‘tish zarur, kitob “bolalarni qiziqitira olishi, zavqlantirishi, hayratlantirishi, to‘lqinlantirishi kerak”.

Bolalarning kitob bilan muloqoti uni o‘qishda ko‘rinadi. Mohiyatan o‘qish “ijtimoiy ahamiyatli axborotlar, kasbiy va kundalik faoliyatni tashkil etishda zarur bo‘lgan bilimlar, avval va hozirda madaniy jihatdan qadri bo‘lgan tarixiy hamda zamonaviy voqealar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘zlashtirishning muhim usuli” dir.

Darhaqiqat, mutolaa kitobxon shaxsini shakllantirishning muhim asosi bo‘lib, u muayyan ko‘nikma, malaka va tajribaga ega bo‘lishni taqozo qiladi. Pedagogik yo‘nalish va bolalarda o‘qish ko‘nikmasi, malakasi va madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirilgan holda mutolaa ko‘nikmalari quyidagilardan iborat ekanligini aytib o‘tish mumkin: matnda nima, kim haqida so‘z yuritilayotganligidan kelib chiqqan holda vaziyatni tushunish; muhim axborotni ajratib ko‘rsatish; matn ostida ifodalangan yashirin sabab va mo‘ljallarni tushunish; matnning hal qiluvchi tahlili: matnning turli qismlarini o‘lchash; shaxsiy tajribani qiyoslash; matnning shaklini o‘zgartirish va izohlash: mazmunni chiqarish; matn bo‘yicha muhokamani tashkil etish, o‘qilganlarga asoslangan holda xulosa chiqarish; matnni baholash, muallifning pozitsiyasi (yondashuvi)ni ko‘ra olish, yaxlit holda asarning kayfiyatini his qilish; o‘qilganlarga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish va o‘z tanlovini izohlash.

Kitob qalblarni yorituvchi nur, kamolot cho‘qqisi va ma‘naviy komillikka yetaklovchi hamrohdur. Kitob o‘qigan insonning aqli charxlanib, dunyoqarashi boyib yetuklik sari ildamlayveradi. Kitob o‘qishning izchil olib borilishi, davomiyligi natijasida asta-sekin o‘qish madaniyati o‘zlashtiriladi. O‘qish madaniyati “shaxsning kitobxon sifatida rivojlanganlik darajasini, ongi, faoliyati va muloqotining miqdor hamda sifat ko‘rsatkichlarini ifodalovchi holati” demakdir.

Vaholanki, kitob o‘qish (kitob mutolaasi)da eng muhim omil – qiziqish sanaladi. Kitob mutolaasi uchun sarflanayotgan vaqtning shaxsga xos bo‘lgan psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlarga mos kelmasligi esa zerikish va toliqishga, natijada qiziqish va ehtiyojning pasayishiga olib keladi. Shu sababli kitob mutolaa qilish jarayonida ota-onalar o‘quvchilarning psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlariga tayanib ish ko‘rishlari zarur.

Mamlakatimizda yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va aholining kitobxonlik ko‘nikmasini yuksaltirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. SHuningdek, bu boradagi ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida zarur bo‘lgan barcha ma‘naviy, huquqiy va moddiy asoslar yaratildi. Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra, shaxsning kitobga bo‘lgan ijobiy munosabati u tomonidan izchil, samarali tashkil etiladigan kitobxonlik faoliyatida namoyon bo‘ladi. “Kitobxonlik faoliyati – shaxsning kundalik faoliyati va hayot tarzini tashkil etishga bo‘lgan yondashuvi” ni anglatadi. Bu o‘rinda keltirilgan ta‘rif, bizning fikrimizcha, kitobxonlik faoliyati mohiyatini yetarlicha yoritmaydi, chunki “kundalik faoliyat” tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, yo‘nalishi, xarakteri, qolaversa, shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi tufayli bir necha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv-bilish faoliyati, ijtimoiy faoliyati, kasbiy faoliyati va b. Shu sababli berilayotgan ta‘rif aniq ifodalanishi zarur. Bu o‘rinda tushunchani quyidagicha ta‘riflash mumkin: kitobxonlik faoliyati – shaxsning kitob tanlash, uni o‘qish, asar g‘oyasi va mazmunini tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, asar syujetiga nisbatan munosabat bildirishdan iborat xatti-harakati.

Fikrimizcha, shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, rivojlantirishda turli xarakterdagi tizimli topshiriqlarning berilishi samarali natijalarga erishishni kafolatlaydi. Talabalarda shakllantirilgan kitobxonlik ko‘nikmalari (kitobni mavjud talablarga muvofiq ota-onalar, o‘qituvchi, kutubxonachi va volontyorlar yordamida o‘qishni o‘rganish)ning keyingi darajasi kitobxonlik malakasi (kitobni mavjud talablarga muvofiq ota-onalar, o‘qituvchi, kutubxonachi va volontyorlar yordamisiz, mustaqil o‘qishni o‘rganish)ning shakllanishi bo‘ladi. Shunday qilib, kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, uning samarali tashkil etilishi ushbu jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi. Binobarin, tegishli yosh davri o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda oila yetakchi o‘rin egallaydi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarurati kitob va kutubxonalarning rivojlanishi bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham donishmandlar “Kitob– tafakkur qanoti” deb bejizga aytishmagan. Bu qanot mustahkam bo‘lsa, yuksak kengliklar sari intilishdan tolmaydi.

Oilada bolalar kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining pedagogik-psixologik asoslari, tashkiliy-metodik talablaridan yetarli darajada xabardor bo'lsalargina kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Ota-onalar kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda bu boradagi mavjud ahvoldan, qolaversa, mazkur jarayonning samarali kechishiga xizmat qiladigan omillar, ularning pedagogik-psixologik ta'siridan ham xabardor bo'lishlari zarur.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. – T.: O'zbekiston, 2003. – 298 b.
2. Quronov D. Muhimi – kitobxonlik darajasi va madaniyati. <https://ziyouz.uz/suhbatlar/dilmurod-quronov-muhimi-kitobxonlik-darajasi-va-madaniyati-2015>.
3. N.A.Muslimov, M.Usmonboeva. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha O'UM. Toshkent, 2016.
4. Косимова, Х.Н. (2021). Китобхонлик кўникмасини шакллантиришда оилага педагогик тавсиялар бериш тизими. Scientific progress, 1(6), 107-110.
5. Ismoilov, I., & Qosimova, X. (2022). Oilada erkin fuqaro shaxsi va barkamol avlodning shakllanishi. So'nggi Ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 5(1), 232-238.
6. Қосимова Х., & Каримова Г. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 612. (2021).
7. Джалолова М. Эъзога Юлдашевна Рахманова, and Холида Набиевна Косимова. "ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА." Scientific progress, 1.
8. Qosimova, X. N. (2023). КИТОВХОНЛИК КО'НИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МЕТОДИ. ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ВА ЖАМИЯТ МУАММОЛАРИ, 2(2), 46-49.
9. Oribjonovich, Q. X., & Nabiyevna, Q. X. (2023, April). OLIY TALIM TALABALARIDA PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 7-11).
10. Касимова, Х. (2023). Oilada kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish zarurati. Общество и инновации, 4(4/S), 8-12.
11. Kasimova, K. N. (2022). The role of reading culture in increasing the effectiveness of education and upbringing. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(2), 17-24.